

MIRACH CHAG'RI OQTOSHNING “HAYOT YUTQAZGAN JOYINGDAN BOSHLANAR” ASARI

Kozimbek Kamol o'g'li Abdusalomov

TATU Samarqand filiali TTKT fakulteti AX 22-06 gruxi talabasi

kozimbekabdusalomov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Motivatsiya... O'ylab qarajak, shu birgina so'z hayotimizda ko'pgina ishlarni bajarishimiz uchun turtki bo'la olarkan. Chunki har bir inson ham qachondir mag'lub bo'lganida yoki tushkun ahvolga tushganda, hayotdan zerikkan chog'ida qandaydir rag'bat beradigan, uni ilhomlantira oladigan, xullas, bir so'z bilan aytganda unga MOTIVATSIYA beradigan qandaydir insonga yoki hodisaga zaruriyat sezadi. Va shunday chog'larda motivatsiyani topa olish muhimdir. Negaki, ko'plab insonlar og'ir damlarida o'zlarini umidsiz his qiladilar. Biroq inson hech qachon bir nuqtada turib qolib, umidsizlik tubiga tushib qolmaslik kerak. Hatto eng yomon paytlarda ham yashashimiz uchun motivatsiya bera oladigan kichik bir UMIDimiz bo'lishi kerak. Muammolar har birimizning hayotimizda uchrashi tabiiy holat. Yiqilganda qayta oyoqqa tura olish uchun, ranjiganda baxtni his qila olish uchun, imkonsiz ishga qo'l urganda, bir imkon eshigini topa olish uchun ham bizga UMID kerak. Zero, ko'plab hayotdan motivatsiya izlagan insonlar qo'lini bezagan va ularga motivatsiya bera olgan kitoblardan biri hisoblanmish, mashhur turk yozuvchisi Mirach Chag'ri Oqtosh qalamiga mansub „Hayot yutqazgan joyingdan boshlanar“ kitobida aytilganidek: „Sen ALLOHga ishon, Umidlar hech kutmagan vaqtingda gullaydi.“

Kalit so'zlar: Motivatsiya, Umid, Motivatsiyaning hayotimizdagi o'rni, Shaxsiy maqsadlar.

KIRISH

Motivatsiya bu shaxsiy maqsadlarga yoki qandaydir jamoaning maqsadlariga erishish uchun faoliyat va muloqotni rag'batlantirish jarayoni hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, motivatsiya bizni biron bir maqsad uchun harakat qilishga undaydigan diqqatga sazovor joyni yoki ehtiyojni yaratish demakdir. Bu holatda ehtiyoj ichki, maqsad esa motivatsiyaning tashqi tomoni sifatida ishlaydi. Odamlarni rag'batlantirish, demak, ularning muhim manfaatlariga ta'sir qilish hayot jarayonida o'zlarini anglashlari uchun sharoit yaratishni anglatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Xususan so'nggi yillarda ko'plab insonlarning fikr-u xayollarini o'g'irlagan va eng ko'p sotilgan kitoblardan biri hisoblanmish, „Hayot yutqazgan joyingdan boshlanar” kitobini o'qir ekanman, motivatsiyaning inson hayotidagi qiymatini qisman angladim. Chunki asarni mutolaa qilish jarayonida ko'plab motivatsion fikrlar va g'oyalar butunlay xayollarimni o'g'irladi va hayotim davomida ko'plab buyuk ishlarni qila olishim uchun motivatsiya bera oldi.

Inson hayoti davomida turli xil yaxshi yoki yomon holatlarni boshdan kechiradi. Hayotning part-u balandliklaridan o'tadi, lekin shunga qaramasdan hayotda doimo olg'a intilishga va hech qachon umidsizlikka tushib qolmaslik uchun ham kuchli iroda va matonatga ega bo'lishi kerak. „ Hayot yutqazgan joyingdan boshlanar” asarini op'qir ekanman, hayotda umid bilan yashash uchun azrigulik ko'plab sabablarni topdim va hozirda ularni hayotimga tatbiq etish va yangi marralarni zabt etish uchun tinmasdan harakatdaman. Chunki bu kitob orqali ko'plab foydali ma'lumotlarga ega bo'ldim.

Inson hayotga bir marta keladi va har kim o'zidan mazmunli va boshqalarga o'rnak bo'la oladigan hayot yo'llarini qoldirmog'I lozim. Zeroki , siz yashab o'tgan hayot yo'llaringizdan ergashgan insonlar ilhomlansin, hayotda doimo olg'a harakat qilish uchun motivatsiya olsin va shuningdek hayotida muvaffaqiyat qozonish uchun sabab topa olsin.

Bundan tashqari ushbu kitobda insonni mukammallikka yetaklovchi ko'plab hikoyalar ham mavjud. Va ushbu kitonning „ Yaxshilar doimo g'olib” deb nomlangan qismida ham ko'plab ma'noli va mazmunli fikrlar yoritilgan. Masalan , inson ichki olamida nimani parvarish qilsa , o'zi ham o'shanga aylanib ketaveradi. Ba'zan munosib bo'lmagan odamlarga ham yaxshilik qilsakda, muhimi ularning qilgan yaxshiliklarimizni qadrlashlarini emas, biz o'zimizga yarashganini qilamiz. Chunki qalbizda yomonligi yo'q insondan har doim yaxshiliklar chiqadi. Qalbi pok va yaxshilikka burkangan qalblar yomonlikka duch kelsa ham qalbidagi yaxshilik va ezgulik iforlarini boshqalarga tarqatib also charchamaydi.

Quyida keltiriladigan fikrlar ham ushbu fikrlar tasdig'I bo'lsa ajab emas: „ Keksa rais kulbasining oldida nabirasi bilan o'tirib, bir-biri bilan g'ajishayotgan qashqir itlarni tomosha qilishayotgan ekan. Oq va qora bo'lgan bu itlarni qariya hech yonidan ayirmas va ular kulbani qo'riqlasharmish. Bolakay kulbani qo'riqlash uchun nega buvasi ikkita it olib yurishini, nega ular oq va qora ekanligini tushunishnin istar edi. Va bu savollarga javob berishini buvasidan so'rabd. Qariya jilmayib , nabirasining boshini silab:

- Ular men uchun ikkita belgidir, - debdi.

- Qanaqa belgi ?

- Yaxshilik va yomonlik ramzi . Aynan sen so'ragan shu itlar kabi yaxshilik va yomonlik doimo ichimizda shunday jang qiladi. Ularni tomosha qilarkanman, xayoloimga shu keladi. Shuning uchun ham ularni yonimdan ayirmayman.

Bolakay bu gaplardan keyin jang bo'layotgan bo'lsa , g'olib ham bo'lish kerakligini o'ylab qoladi. Hamda bola singari tugamas savollaridan birini qo'shib qo'ydi:

- Xo'sh, bobo, sizningcha, bu kurashda qaysi biri g'olib bo'ladi?
- Qaysi birimi , bolam ? Men qaysi birini ko'proq oziqlantirsam..."

Xo'sh, siz-chi ? Siz qaysi birini oziqlantirgan bo'ladingiz?

Har doim ichingizda yaxshilik urug'ini parvarish qiling. Shunday oziqlantiringki, yomonlikni ,albatta, yengsin!

Minnat qilmasdan yaxshilik qila oladigan, o'zida bo'lmaganlarni ham boshqalarga ulashishga, berishga tayyor bo'lgan va baxtli qilib, baxtli bo'ladigan insonlar asl qahramonlardir. Lekin hozirgi kunda bunday qahramonlarning soni kamaymoqda. Chunki hamma o'z manfaatini o'ylaydigan , boshqalar uchun qayg'urmaydigan insonlar ko'payib bormoqda. Hech kim o'ziga foydasi yo'q ishga qo'l urmaydi va xohlamaydi. Shunday ekan, evazini kutmasdan qilingan yaxshilik va o'zida bo'lmaganini ham ulashib, birgalikda baham ko'rish eng katta jasorat hisoblanadi.

Chunki o'lsak yonimizda olib keta oladigan yagona narsamiz ham qilgan yaxshiliklarimizdir. Shu sababli, ko'plab ota-onalar farzandlariga yoshligidanoq javob qaytmasdan yaxshilik qilishni va asl boylik ham mana shu ekanligini va faqat o'z manfaatlari uchun yaqin bo'ladiganlar , hech qachon yaxshilik qila olmaydiganlar va faqat o'zini o'ylaydiganlar haqiqiy xudbin ekanligini uqtirishadi.

Shuningdek ushbu kitobdagi Les Brauning ushbu gaplari diqqatimni tortib, chuqur mulohaza qilishim uchun sabab bo'ldi: „, Sening haqiqating boshqalarning sen haqingdagi fikri bilan bir xil bo'lishi shart emas”.

Haqiqatan ham, Kim bu valiy zotlar? Qachondan beri ularning aytganlarini biz uchun muhim bo'lib qoldi? Qachondan beri biz boshqalarning fikri uchun yashaydigan bo'ldik?

Insonlarga aql o'rgatishni yoqtirmayman. Shu paytgacha bunday odatim ham bo'lmagan. Ammo shu yoshga kelib, erishgan omadlarim uchun nimadan qarzdorman, Bilasizmi? Insonlar nima deb o'ylashiga , nima his qilishiga v anima deyishiga zarracha ahamiyat bermaganimdan , ularning gaplariga quloq berkitganimdan qarzdorman. Va shuningdek, Mirach Chag'ri Oqtosh qalamiga mansub „, Hayot yutqazgan joyingdan

boshlanar” asarini o’qib ushbu fikrlarning yana bir isbotini topdim. Bu dunyoda baxtli va omadli bo’lishni xohlaganlar bo’lsa, atrofdagilarning gapiga quloq yopa bilsin. Bilmasa , o’rganib olsin. Chunki bu narsa ko’pchilikning hayotida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki qayerga borma, bundaylarga duch kelaverasan. Nima qilsang ham gapiraverishadi. Senga gapini o’tkazishga urinishadi. Hatto vaqti kelsa, ularning yo’liga yurmaganing uchun seni ayblashadi, go’yo seniki bo’lgan hayot ularning yelkasiga tushgandek...

XULOSA

Xulosa o’rnida shuni ayta olamanki, ushbu kitobni o’qigan inson o’zini g’oyo yangi tug’ilgandek his qiladi va hayotga o’zgacha nigoh bilan qarashni boshlaydi va agarda ushbu asardagi muallif tomonidan berilgan har bir nasihat va malahatlarni hayoti davomida tatbiq qilishga harakat qilsa va uddalasa, albatta, u inson hayotida yuksak marralarni zabt eta oladi. Shuningdek , o’zi uchun ochilmagan yo’llarni ochadi yoki yangidan yangi motivatsiya manbaalarini topishga harakat qiladi va o’zining ochilmagan va sayqallanishi kerak bo’lgan qirralari va talantlarini kasht etadi.

REFERENCES

1. „Hayot yutqazgan joyingdan boshlanar” Mirach Chag’ri Oqtosh hikoya 1-14
2. <https://e-yoshlar.uz/uz/work/view?id=309>
3. <https://kitobxonlardunyosi.uz>
4. <https://kitobxon.com>